



## INSONLARDAGI QOBILYATLARNING PAYDO BO'LISHI VA XUSUSIYATLARI

To'xtasinova Nafisa Imomovna  
*FDU Matematika kafedrasida o'qituvchisi*

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarini ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholik (qarang Daho) namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi.

Insonlarda qobiliyatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi borasidagi muxim qarashlardan biri, bu genetika xisoblanadi. Bu faraz tajribalar va kuzatuvlar natijasida ilmiy soslangan bo'lib kuzatuvlardan misollar keltirilganda istalgan odam tushinishi mumkin. Misol: sanatkorlarning farzandida san'atga, sportchilarning farzandlarida sport (aynan bir turi)ga, hayot faoliyati xisob-kitoblarga asoslangan kasb egalarining farzandlari matematika fanini o'rganishga qobiliyatlari mavjud bo'ladi deyiladi. Biolog olimlar buni ota-onaning yashash tarzi va mehnat faoliyati davomida egallagan ko'nikma va malakalarini



o'zida aks ettiruvchi DNKlarda faol xromosomalarning bolada akslangan xarakteristikasi deb izohlaydi.

Insonlarda bo'lishi va shakllanishi mumkin bo'lgan, genetikaning aloqadorligi passiv va barchada ommaviy ravshda bo'lishi mumkin bo'lgan qobilyatlar ham mavjud. Quyida pedagogik faoliyatning muxim jixati bo'lgan qobilyat haqida fikr yuritamiz.

Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir. Pedagogik qobiliyat bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Pedagogik qobiliyat ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi. Dunyo olimlari pedagogik qobiliyatni o'zlarining nazariyalariga asoslanib, turlicha guruhlariga ajratib chiqishgan. Masalan: F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan.

1. Didaktiv qobiliyatlar
  2. Akademik qobiliyatlar
  3. Pertseptiv qobiliyatlar
  4. Kommunikativ qobiliyatlar
  5. Tashkilotchilik qobiliyati
  6. Avtoritat qobiliyatlar
  7. Kommunikativ qobiliyatlar
  8. Pedagogik xayolot
  9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati
- T.I.Gavakov esa quyidagicha ifodalagan;

- oluvchilarni his eta olish qobiliyati
- kishilar bilan samimiy muloqot olib borish, muloqotchanlik
- kasbiy yetuklik
- mantiqiy ishontirish qobiliyati
- o'z- o'zini boshqara olish qobiliyati
- ijodiy ishga qobiliyatlilik

Tarbiyaviy ishni tashkil etish bilan bog'liq qobiliyatlar esa, boshqa shaxslarning ichki hissiyotlarini tushuna olish, boshqalar haqida qayg'urish, o'zini taqlid uchun na'muna sifatida ko'rsata olish, tarbiyaviy jarayonda har bir shaxsning o'ziga xos shaxsiyliklarini hisobga olish, rag'batlantirish, bir-birini tushuna olish, vaziyatga mos ravishda muloqot uslubini tanlay olish, o'zining shaxsiy tajribalarini boshqalarga yetkazib bera olish, o'z ustida mustaqil shug'ullana olish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, beruvchining pedagogik mahoratlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Oson yo'l bilan murakkab bo'lgan bilimlarni oluvchiga tushuntira olish qobiliyati didaktik qobiliyat deb ataladi. Bunda o'qituvchi o'quv qo'llanmalarini tushunarli tarzda o'quvchiga yetqaza olishi kerak, o'quvchilarda mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishi va zaruriyat tug'ilganda o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi uchun o'quv



qo'llanmalariga o'zgartirish kirita oladi va yanada soddalashtirish oqibatida murakkab narsa oddiy holatga keladi.

2. Barcha fanlar bo'yicha muayyan bilimlarga ega bo'lishlik akademik qobiliyatdir. Ushbu qobiliyatga ega bo'lgan, o'z faniga oid bo'lgan o'quv qo'llanmasi bilan cheklanib qolmay, izlanishlar orqali, fan-texnika va ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlar orqali yanada ko'proq bilimga ega bo'ladi.

Ushbu tasniflashlar misol tariqasida keltirilganlar faqat. Bugungi kunda pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirish masalasida olib borilayotgan tatqiqotlarning ko'pchiligida psixologik yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin. So'zimiz oxirida shuni aytmoqchimizki metadist olimlarning ham amaliyot jarayonidagi sezilar-sezilmas shakllanayotgan qobilyatlarni tizimli rivojlantirilishi ta'limning samaradorlikka erishishidagi eng katta qadamlardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'xtasinov, D. F., Gafurova, M. A., & qizi Abdullayeva, S. H. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFDI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 729-733.

2. To'xtasinov, D. F., & qizi Abdupattoyeva, D. A. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING GEOMETRIK TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 771-773.

3. To'xtasinov, D. F., & qizi Abdullayeva, S. H. (2023). MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH SHARTLARINING DIDAKTIK KOMPLEKSINI AMALIYOTDA QO'LLASH YO'LLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 613-616.

4. Imomovna, T. N. Akbarova Sevara Husanboy qizi.(2023). APPLICATION OF INTERACTIVE TEACHING METHODS IN MATHEMATICS LESSONS. Academia Globe: Inderscience Research, 4(01), 86-93.

5. Nishonboyev, A. S., Akbarova, S. X., & Tuhtasinova, N. I. (2023). Teaching Students Independent Thinking in the Process of Teaching Mathematics in the System of Continuing Education. European journal of innovation in nonformal education, 3(3), 9-11.

6. To'xtasinova, N. I., & Mirzaabdullayev, I. (2023). Qutb koordinatalar sistemasida uchburchak yuzini hisoblashni matematik modeli. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 518-522.

7. To'xtasinova, N. (2023). GEOMETRIYA DARSLARIDA STEREOMETRIK MASALALARNI YECHISH METODIKASI. Research and implementation, 1(3), 4-10.

8. To'xtasinova, N. (2023). GEOMETRIYA DARSLARIDA STEREOMETRIK MASALALARNI YECHISH METODIKASI. Research and implementation, 1(3), 4-10.